O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2024 - yil 21 - may 175-8-117-Q/24 Termiz tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida yangi mehmonxona qurish va uni jihozlash uchun investorlarga O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 18-apreldagi 218-son hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 15-maydagi 400-8-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-apreldagi 218-son qarori ijrosini ta’minlash hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida yangi mehmonxona qurish va uni jihozlash uchun investorlarga O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 18-apreldagi 218-son hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 15-maydagi 400-8-0-Q/24-sonli qarorlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2024-yil 1-maydan 2026-yil 31-dekabrga qadar Surxondaryo viloyatida investorlar tomonidan yangi mehmonxona qurish va uni jihozlash (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) xarajatlarining bir qismini qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan bir martalik subsidiya ajratilishi;

subsidiya 2024-yil 1-maydan 2026-yil 31-dekabrga qadar bo‘lgan muddatda muvofiqlik sertifikati berilgan yangi tashkil etilgan mehmonxona uchun

uning toifasi va xonalar sonidan qat’i nazar ajratilishi;

subsidiya O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorligi bo‘lmagan, shuningdek, bankrotlik va tugatish jarayonida bo‘lmagan investorlarga ajratilishi;

qaror bilan Davlat budjetidan subsidiya ajratish to‘g‘irisidagi vaqtinchalik nizom va subsidiya ajratish sxemasi tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hududida yangi qurilgan mehmonxonalarga subsidiya quyidagi miqdorlarda ajratilishi belgilab qo‘yilsin:

toifasiz mehmonxonadagi har bir xona uchun - 15 mln so‘m;

1 yulduzli toifaga ega mehmonxonadagi har bir xona uchun - 20 mln so‘m;

2 yulduzli toifaga ega mehmonxonadagi har bir xona uchun - 25 mln so‘m;

3, 4 yoki 5 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son qarorida belgilangan miqdorlarda.

4. “Janub quyoshi” gazetasi tahririyati (D.Normurotov)ga mazkur qarorning mazmun mohiyati bilan tuman aholisi va tadbirkorlarini gazeta sahifalari orqali xabardor qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**